
Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari boshchiligidagi navbatdagi qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi Farg'ona viloyatida o'tkazildi

Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari polkovnik Muxtor Muxitdinov boshchiligidagi Energetika vazirligi bilan hamkorlikda Farg'ona viloyatida shartli ravishda elektr energiyasi va gaz ta'minoti bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan mutasaddi tashkilotlarning harakatlarini o'rganish hamda kuz-qish mavsumida energetik ob'yektlarning barqaror, uzluksiz va xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

Tadbirlar davomida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanish, vaziyat oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratilib, mutasaddilarga zarur ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

2023-08-30 11:45:27